

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MANTIQIY FIKRLASHINI SHAKLLANTIRUVCHI ELEKTRON DIDAKTIK O'YINLAR ISHLAB CHIQISH VA ULARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Meyliyeva Shoxista Rustamovna
Qarshi Davlat Texnika Universiteti

Annotatsiya. *O'yin faoliyati jozibador, chunki bu jarayonda u bolalarning qiziqishlari, istaklari, so'rovlari, ijodiy intilishlarini qondirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi. Bundan tashqari, ularga g'ayrioddiy, ba'zan sirli muhit yoqadi, bu o'yinga o'ziga xos joziba bag'ishlaydi. Quvonch, shuningdek, o'yin jamoaviy harakat va jamoaviy muloqot qilish imkoniyatini ochib beradi.*

Kalit so'zlar: *elektron didaktik o'yinlar, ssenariy, ta'lim, tarbiya, kognitiv faoliyat, qobiliyat, akkomodatsiya, mantiqiy fikr*

Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning innovatsion shakl, vosita va metodlari masalasiga doir ilmiy-nazariy, metodik qarashlar va materiallar L.G.Niskanen, E.A.Baranova, L.A.Venger, O.M.Dyachenko, A.Zak, Z.A.Mixaylova, O.A.Sokolova kabilarning ilmiy qarashlari va metodik tavsiyalari asosida amalga oshirildi.**[Ошибка! Источник ссылки не найден., Ошибка! Источник ссылки не найден., Ошибка! Источник ссылки не найден., Ошибка! Источник ссылки не найден., Ошибка! Источник ссылки не найден.]**¹.

Bolaning atrof-muhitga adaptatsiyasi jarayonida assimilyatsiya (bola tafakkurida yangi predmet va hodisalarning avval ma'lum bo'lgan predmet va hodisalar xususiyatlari orqali qabul qilinishi); akkomodatsiya (o'z bilim, ko'nikma va malakalarini yangi shart-sharoitlarga moslay olish amallari bajariladi. Mantiqiy fikrlash bolaning materiallashgan harakatlari, amallari, ularning fikriy jarayon bilan aloqalari orqali yuz beradi. Mantiqiy fikrlashda ong va tafakkur qabul qilgan jismoniy harakat bosh rol o'ynaydi. Bolaning mantiqiy fikrlashi asosan jismoniy harakat orqali yuzaga keladi, anglangan va qabul qilingan jismoniy harakat miya qobig'iga joylashadi va bolaning mantiqiy fikrlash tajribasini vujudga keltiradi. Binobarin, bolaning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish uchun bolani jismoniy harakatlantirish zarur. Bu harakatlar tana harakatlari bo'lishi mumkin, predmetlarni taxlash, ularni qayta tashlash, birini biri ustiga qo'yish, tartiblashtirish, ajratish, guruhlarga bo'lish, birini-biri ichiga qo'yish,

¹ Интеллектуальное развитие и воспитание дошкольников //Под ред. Л.Г. Нисканен. - М., 2002; Баранова Э. А. Диагностика познавательного интереса у младших школьников и дошкольников - СПб.: Речь, 2005; Венгер Л.А., Дьяченко О.М. Игры и упражнения по развитию умственных способностей у детей дошкольного возраста. - М., 1989; Зак А. Будем смыслеными! Развитие интеллектуальных способностей у детей пяти-шести лет - М., 2003; Михайлова З.А. Логико-математическое развитие дошкольников Санкт-Петербург: Детство-ПРЕСС, 2015; Соколова Ю.А. Игры и задания на интеллектуальное 1,2,3 4 1 1 развитие ребенка пяти-шести лет - М., 2007.

predmetlarni jismoniy sezish va xis qilish, ularni yalab ko'rish, og'ziga solish, ularni har tomonlama aylantirib ko'rish kabilar aynan ilk bola rivojlanishi davridagi mantiqiy fikrlashini shakllantiruvchi jismoniy harakatlar sanaladi. J.Piaje firki ga ko'ra, mana shunday aqliy operatsiyalar keyinchalik guruhlarga jamlanadi va xulosalar tarzida bola tafakkuriga joylashadi. Olim bola mantiqiy fikrlashini to'rt rivojlanish bosqichlarini ajratadi, ular:

censomotor bosqich – bola tug'ilishidan ikki yoshgacha;

mantiqiy operatsiyalar vujudga kelish davri – ikki yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan davr (masalan, bola yig'lasa, onasi uni yoniga kelishini biladi), bu davrda bolada egotsentrizm vujudga keladi, bola atrof muhitni o'zi atrofida jamlashga erishadi, hamma narsa uning uchun qilinishini istaydi, bu mustaqillikning ilk qadami sanaladi;

aniq operatsiyalar davri – yetti yoshdan o'n ikki yoshgacha bo'lgan davr;

formal operatsiyalar davri – o'n ikki yoshdan o'n besh yoshgacha bo'lgan davr.

Shunga ko'ra, mantiqiy fikrlashni shakllanishida olim uch bosqichni ajratib ko'rsatadi, ular biologik omil, hayotiy tajriba va ijtimoiy makonda uning rivoji uchun shart-sharoitlarning yaratilishi.

Bolada uning olamni anglashga bo'lgan tabiiy qiziqishlari asosida uning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish ularda shaxsga yo'naltirilgan sifatlar majmui, ya'ni ularda xissiy-emotsional; ruhiy-psixologik; kontekst-sezgi; shaxsiy-irodaviy qobiliyatlarni rivojlantirishni taqozo etadi. Shuningdek, tarbiyachining, ya'ni ota-onalar va maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari murabbiylarining mutaxassislik kompetensiyalari, ularning metodologik, refleksiv, tizimli, kvalitatif sifatlari majmui bo'lishi darkorligini taqozo etadi. Sanab o'tilgan sifatlar kompleksi aslida bolada mantiqiy fikrlash hususiyatlarini rivojlantirishning infrastrukturasiga kiradi va zaruriy talbalardan sanaladi. Masalan, tarbiyachilarga pedagogik bilimlar barobarida bola bilan kommunikatsiya qila olish, ularga muhabbatli qaray olish, agressiyadan yiroqlik, ichki madaniyat va chuqur tolerantlik, bag'rikenglik fazilatlarining bo'lishi talab etiladi. Tabiiyki, ta'kidlangan sifatlar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi va ularni maqsadli shakllantirish zarur.

A.R.Luriyaning ta'kidlashicha, har bir "ko'nikma" dastlab, anglangan motiv bilan boshqariladigan, muayyan sharoitlarda amalga oshuvchi va maxsus sa'y-harakatlar bilan kechadigan murakkab ongli faoliyatni tashkil etadi. "Asta-sekin bu maxsus sa'y-harakatlar umumlashadi va avtomatlashgan operatsiyalar darajasiga ko'tariladi. Mazkur jarayon esa sodda va bir turdagi psixologik tuzilishga ega bo'lgan yuksak darajadagi avtomatlashgan malakaga aylanadi" **[Ошибка! Источник ссылки не найден., Ошибка! Источник ссылки не найден.]**.²

K.K.Platonovning fikricha, "ko'nikmalar" muayyan sharoitda ma'lum bir faoliyat turini bajarishni ta'minlovchi bilimlar yig'indisi va ixcham malakalardan tashkil topgan.

² А.Р.Лурия и современная психология. М., 1982; Хомская Е.Д. - Александр Романович Лурия: Научная биография. М., 1992

“Ko‘nikmalar” shakllanish jarayonida qator bosqichlarni o‘tab, mahorat va ijodkorlik darajasiga ko‘tariladi. I.S.Yakimanskaya ko‘nikmalarni muvaffaqiyatli shakllantirishda bilimlarni qo‘llash, shuningdek ularning bevosita fikrlash operatsiyalarisiz amalga oshmasligini ta‘kidlaydi, bular sirasiga, tahlil va sintez, umumlashtirish va mavhumlashtirish, konkretlashtirishdan iboratligi aytiladi [204]. . Tadqiqotchi Z.I.Xodjayeva esa “ko‘nikmalar – insonlarning aqliy harakatlari va fikrlash jarayoni shaklida namoyon bo‘ladi”, - deb ta‘kidlaydi [**Ошибка! Источник ссылки не найден.**]³.

Mantiqiy fikrning rivojida bolaga evristik muhit va o‘yin sharoitini yaratish, ya‘ni bola uchun yangiliklarni kashf etish jarayonini tashkil qilib berish muhimdir. Shunga ko‘ra, bolada mantiqiy fikr vujudga kelayotgan davrda har bir bola besh qadamdan iborat shakllanish jarayonidan o‘tadi, ular:

sezish (men his etyapman);

motivatsiya (men istayman);

o‘z harakatlarini baholash (men qila olaman);

mantiqiy fikr (men bilaman);

o‘z qarorlari realizatsiyasi (men qilyapman, men bajaryapman).

Mana shu asosli ta‘sir eta oluvchi va samarali bo‘lgan nuqtalardan biri bu aynan bolaning atrof-muhit hodisalarini anglashga nisbatan bo‘lgan qiziqishidir. Agar pedagogik jarayon maqsadli ravishda bola qiziqishlarini ma‘lum bilimlar bilan to‘yintira olsa, bola shaxsida mutanosib o‘zgarishlar qilish mumkin bo‘ladi. Mazkur o‘zgarishlar esa zarur standart asosida samarali bo‘lishi uchun tayyorlangan ta‘lim va tarbiya ta‘minoti pedagogik maqsadga muvofiq tanlanishi va tayyorlanishi zarur.

Maktabgacha bo‘lgan shaxs rivojida tafakkur, ong, nutq bilan bog‘liq jarayonlarda intensivlik kuzatiladi. Bola narsalarni va predmetlarni nomini o‘rganadi, ularni solishtiradi, umumiylik va farqlarni topadi, xulosalar qiladi, ular funksionalligini o‘rganadi. Aynan mana shunday amallardan o‘tish bolada mantiqiy fikrni shakllantiradi va ta‘minlaydi. Vaziyatlarni tahlil qilishga o‘rganadi. Voqealar o‘rtasidagi sababiy-natijaviy bog‘liqliklarni qabul qiladi. Bola bu jarayonda nafaqat fikr qiladi, shu jumladan o‘z faoliyatini boshqarishga o‘rganadi, o‘z qaror va real harakatlarining ketma-ketligini ishlab chiqadi, o‘z qadamlari algoritmini yaratadi, vaziyatga monand ravishda rejalar tuzishga o‘rganadi.

Shunga ko‘ra, masalan, agar bolaga biror bir rasm ko‘rsatilayotgan bo‘lsa, bola fikri avval rasmni umumiy holda anglaydi. Keyingi o‘rinda konkretlikka e‘tibor kuchayadi, rasmning elementlari ko‘proq qiziqish uyg‘otadi. Ulardagi umumiylik va farqli jihatlar tartiblashtiriladi. Keyingi o‘rinda esa oldinga abstrakt fikr kilish jarayoni chiqadi, rasm bo‘lmasa ham, bola rasm borasida fikr qila oladi. Umumiylikni topish asosida qonuniyatlarni anglash jarayoni turadi. Farqlarni topish esa o‘ziga xos

³ З.И.Ходжава З.И. Проблема навыка в психологии. – Тбилиси: изд. АН Грузинской ССР, 1960

jihatlarini tartiblashtirishga o'rgatadi. Asbstraksiya voqea va hodisalardan tashqarida bo'lgan jarayonlarni ko'ra bilish, ularni real bo'lmagan holda tafakkur qilishni o'rgatadi.

Shunga ko'ra, Jan Piajening fikriga ko'ra, mantiqiy fikr bola ulg'ayishi va rivojlanishining muhim bo'g'inlaridan biri bo'lib, u aynan insoniy, ya'ni faqat insonga xos xususiyatdir. Jan Piaje mantiqiy fikrni bolaning atrof- muhit bilan aloqa o'rnatish instrumenti, ya'ni asbobi deb baholaydi. Mazkur asbobning vazifasi esa qanday muhit bo'lsa, bolani aynan mana shu muhitga adaptatsiyasini ta'minlashdir [0]⁴.

Bolaning atrof-muhitga bo'lgan qiziqishlari asosidagi olamni anglash jarayoni ikki uzviy birlikdagi yo'llar orqali amalga oshiriladi, ular:

stixiyali-amaliy tajribaviy yo'nalish;

maqsadli ta'lim va tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish yo'nalishi. Ikkala yo'nalish ham maktabgacha ta'lim muassasasi faoliyatiga tegishli bo'lib, birinchi yo'l doymiy davom etadigan, ikkinchi yo'l bola tarbiyasidagi oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti tarkibida tashkil qilinadigan yo'ldir. Maqsadli tashkil qilinadigan yo'l kattalar orqali boshqariladi, uning pedagogik mazmunini kattalar belgilaydi, kattalar uning natijadorligi va samarali bo'lishiga javobgar sanaladi. Ikkala yo'l ham bolaning rivojlanishiga o'ziga xos tarzda ta'sir etadi va o'z ta'sirini qoldiradi.

Tadqiqot doirasida quyidagi usul, vosita va yo'llar samarali ekanligi aniqlandi, ular: turli o'yinlar (didaktik, rivojlantiruvchi va o'rgatuvchi), verbal metodlar (tovushlar takrori, so'zlar takrori, ertak, tez aytishuv, suhbat, hikoya, bayon, yodlash, she'r va qo'shiq aytish, ovoznı taqlid qilish), fikrlash, mantiqiy o'yinlar, savollar, illyustratsiyalar va ko'rgazmali materiallarni tahlil qilish, mehnat tarbiyasi (oshpazlik, sabzavot, meva va ko'katlarni nomini bilish, ularni tozalash, tozalikka rioya qilish, uy predmetlari va jihozlari nomini bilish, tozalash asboblarning ishlash mexanizmini bilish, o'zini muhofazalash choralari bilish, to'g'rash, kesish, burdalash, mayda qilib chopish, taxlash, ustma ust qo'yish, tartiblashtirish, ajratish, qo'shish, unifikatsiyalash, sistemalashtirish), matematik metodlar (sanash, hisoblash, bo'lish, katta va kichik tushunchalari, ayirish, olish, qo'shish), bolaning qiziqishlarini rivojlantirishda tabiat bilan bevosita muloqot (daraxtlarning nomini bilish, ularni ajrata olish, yer, osmon, suv, tog', zamin, shamol, qor, yomg'ir kabi tushunchalarni anglash), geometrik hajmlar va shakllarni o'rganish (ellipsoid, uchburchak, to'rtburchak, doira, kvadrat), turli predmetlar va ular funksiyalarini o'rganish, xotirani faollashtirish va qo'llash, bola imkoniyatlarini rivojlantirishda xalq va ko'cha o'yinlari (o'ynashmachoq, bekinmachoq, sakrash, dumbaloq oshish), turli konstruktorlar (LEGO /Daniya/, Mega bloks /Kanada/, Keenway /Xitoy/, Gorod masterov /Rossiya/, Hape Toys (Germaniya/, GIGO /Tayvan/, ZOOB /AQSH/, Meccano /Fransiya/), maxsus qurilish sistemalari, bola rivojida musiqa va ashula, vizual effektlar, barmoqlar motorikasi va gimnastikasi, nafas olish organlari gimnastikasi, umumiy gimnastika, valeologik bilimlar (qo'l yuvish malakasi, yuz yuvish, tahorat olish, kiyim kechak ozodaligi, ovqat tanovvul qilish tartibi va qoidalari, suv

⁴ Piaje, J. Psixologiya intellekta. - SPb.: Piter, 2004. - 192 c.

ichish, kun tartibi), verbal va vizual topishmoqlar, rebuslar yechish, anagrammalar, AKT mantiqiy o'yinlarini o'ynash, mantiqiy xulosalar uchun mo'ljallangan o'yinlar, xususan poyezdlar, mnemotexnika usullarini qo'llash, teleko'rsatuvlar tayyorlash, diktorlar rolini o'ynash kabilar.

Ko'rinib turibdiki, ayni mana shu davr, yoki maktabgacha bo'lgan davr bola bilimlarini ta'minlashda eng intensiv davr hisoblanadi. Shuningdek, tadqiqot doirasida xalq va oila udumlari, qadriyatlar, odat va an'analar, xalq ma'naviyati va milliy axloqiy qadriyatlar, xalq tajribasi va urf-odatlari, xalq pedagogikasi, xalq o'yinlari va harakatli tadbirlariga tayanish juda muhimligi aniqlandi. Binobarin, mazkur pedagogik jarayonda an'anaviylikdan voz kechmagan hola innovatsiyalarni ularga singdirgan holda ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil qila bilish maksimal darajada uning samaradorligini ta'minlashi aniqlandi.

Biz tadqiqot olib borishda uning doirasiga qamrab olingan bolalar mantiqiy fikrlash darajasi, ular xarakteristikasi va yosh differensiyasiga alohida e'tibor qaratdik. Yuqorida sanab o'tilgan bolaning bilimga qiziqishlarini rivojlantirish asosida uning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning ta'lim usullarini ko'rib chiqamiz:

O'yin. Uch yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan davrdagi bolalarning o'yinlari yosh differensiyasi nuqtai nazaridan bir-biridan tamomila farq qiladi. Umuman olganda bolalarning intellektual o'yinlari didaktik, o'rgatuvchi va rivojlantiruvchi o'yinlarda ajratiladi. Shuningdek, mantiqiy fikr rivojiga maxsus yo'naltirilgan oddiy matematik-syujetli o'yinlar, mantiq o'yinlari, qiziqarli topishmoq-hikoyachalar mavjud.

Didaktik o'yinlar. Ular faol ta'lim berish usullaridan biri bo'lib, guruhlarda va yakka holda tashkil qilingan va ma'lum bir didaktik muammoni hal etishga qaratilgan o'yindir. Didaktik o'yinning maqsadi asli o'yin emas, balki o'yin vositasida ma'lum bir ta'lim kontentini bola tafakkuriga o'tkazishdir. Didaktik o'yinlar orqali tizimlar, hodisalar va jarayonlar borasidagi ma'lumotlarni bola tafakkuriga yetkazishdir. Masalan, "Xatosini top" o'yini. 3-4 yoshli bolalarga turli predmetlar, hayvonlar, ko'rinishlar rasmi chizilgan kartochkalar ko'rsatiladi. Va ularning nomini tarbiyachi qattiq ovozda noto'g'ri talaffuz bilan aytadi. Bolalar mana shu noto'g'ri joy qayerdaligini aniqlab, to'g'ri talaffuz qanday bo'lishini topishlari kerak bo'ladi. Yoki hodisa tahlil qilinadi. Kitob o'qiyotgan kuchuk rasmi ko'rsatiladi. Bolalarga savol tashlanadi. "Bolalar, rasmda kuchuk kitob o'qiyapti. Lekin aslida kuchuk kitob o'qiy oladimi?" degan savol beriladi. Bolalar "Yo'q, hayotda kuchuk kitob o'qiy olmaydi" deb javob berishlari lozim bo'ladi. Ikkinchi o'yin. Tarbiyachi biror bir so'zning birinchi tovushlarini talaffuz qiladi xolos. Bolalardan mana shu so'zni to'liq variantini topishlarini so'raydi. Bolalar so'zni topishlari kerak bo'ladi. Bunday didaktik o'yinlarning turlarini juda ko'p ishlab chiqish mumkin. Ular bolada qiziquvchanlik, mushohada, sezgirlik, fikr qilish, analiz, to'g'ri xulosalar qilish kabi xususiyatlarni shakllantirish uchun xizmat kiladi.

O'rgatuvchi o'yinlar. Bunday o'yinlardan maqsad biror bir faoliyatni bolaga maqsadli o'rgatish vositasida unda ma'lum va belgilangan bir malakalarni

shakllantirishdir. Masalan, xonada sochilib yotgan narsalarni tartib bilan yig'ish orqali bolada xona ozodaligi, tartib, tozalik, o'z ustida ishlash, o'z zimmasiga ma'lum vazifalarni olish, o'z zimmasidagi vazifalarga mas'uliyatli yondashuv, o'z narsalarini avaylash kabi xislatlarni tarbiya qilishdan iboratdir. Masalan, bir bir necha oylik davridan o'ynash mumkin bo'lgan yana bir o'rgatuvchi o'yin. Turli kartochkalar tayyorlanadi va yoki tayyorlari sotib olinadi. Kartochkalarda hayvonlar, qushlar, kemiruvchilar, qadimgi davr hayvonlari, xususan dinazavrlar, sabzavotlar, mevalar, uy jihozlari kabi predmetlarning rasmlari chizilgan bo'ladi. 3 yoshli bolani mana shu narsalarning otini aytishga va eslab qolishga o'rgatiladi. 5-yoshli boladan esa har bir kartochka to'g'risida o'z kichik hikoyasini aytib berish so'raladi. Har ikkala o'yinda ham bolaning xotirasiga ta'sir etiladi. Xotira faollashadi. Axborot tizimlashtiriladi va eslab qolinadi. Rasmlar ko'rsatilganda avvalgi axborotlar bola tafakkurida qayta gavdalanadi. Qaytalanish asosida sintez jarayoni, ya'ni mana shunga o'xshash situatsiya, voqealar, tovushlar, so'zlar esga olinadi. Axborotlar o'rtasidagi aloqadorlik kuchayadi. O'rgatuvchi o'yinlar aynan ma'lum axborotni bola tafakkuriga o'tkazishga asoslangan. Mana shu jarayonda axborotni takrorlash, qayta qayta eslash, u bilan boshqa voqealar va axborotlar o'rtasida ma'lum mantiqiy اساسotsiyalarni vujudga keltirish, axborotlarni mustahkamlash kabilar muhim ahamiyat kasb etadi. Bola narsa va hodisalar o'rtasidagi ma'lum bog'liqlikni anglashga o'rganadi.

Rivojlantiruvchi o'yinlar. Rivojlantiruvchi o'yinlar ma'lum axborotlarni bola mantiqiy fikrlashini rivojlantirish maqsadida tashkil qilinadigan o'yinlardir. Ular ma'lum bir hodisani ijodiy ravishda modellashtirish asosida maxsus mikromuhit yaratadi. U esa o'z o'rnida bolaga yangi imkoniyatlar yaratib beradi. Har qanday o'yin aynan rivojlantiruvchi o'yin qatoriga kirishi mumkin. Biroq barcha o'yinlarni tashkil qilish va olib borishdagi muhim bo'lgan narsa shuki, bola qila olmagan narsalarni ota, yoki ona, yoki tarbiyachi unga ko'mak berib amalga oshirishi mumkin emas. Bolaning o'zi faol ishtirokchi bo'lishi darkor. Yoki javoblarni bolaga darrov aytib qo'yish mumkin emas, chunki bola muammolar borasidagi tayyor holdagi berilgan yechimlarga o'rganib qoladi. Har qanday o'yin jarayonida shakllantiruvchi elementlar mavjud bo'ladi. Bola yurayotgan vaqtdagi uning qo'lidan ushlab yurishni mashq qilish aynan shakllantiruvchi o'yinlardan biridir.

Matematik amallar va mantiqiy o'yinlar: Bolalarning ikki uch yoshidan boshlab sanoqqa, tartib sanoqqa, ortga qarab sanoq qilishga o'rgatish mumkin. Matematik misollarni yechish orqali bolalar sonlarning sanog'i, ya'ni ularning qancha ekanligi, miqdori, sanash usuli, ketma-ketligi, qaysi biri katta va qaysi biri kichik ekanligi, qanday qilib sanoq sonlar ko'payishi, o'zaro birikishi kabilarni o'rganadi. Bu jarayonda bolalar analiz qilishga, sintez qilishga, kombinatsiya qilishga, rejalashtirishga, ketma-ketlikka, makon va zamon hodisalarini anglashga, xulosalashga o'rganadi.

Geometrik shakllar va konstruksiyalar: geometrik shakllar va konstruksiyalarni maxsus doskalar, plastik o'yinchoqlar, rasmlar, kompyuter tizimlari va dasturlari orqali

bolaga tanishtirish jarayoni uning aqliy rivojini ta'minlovchi omillardan biri sanaladi. To'rtburchak, uchburchak, burchak nimaligi, kvadrat, doira, piramida, kubik, silindr, ellips kabilarni nomini aytish, ularni ushlab ko'rish, dumalatish, usta ust qo'yish, ularning farqlarini aniqlash, maxsus kartochkalar orqali ularni topish, nomini takrorlash orqali bolalarda ma'lum tafakkur jarayonini tashkil qilish zarur.

Xulosa. Mantiqiy o'yinlar: mantiqiy o'yinlar turlari juda ko'p. Ularni chor atrofdan topish juda oson. Ularni asosan savollar berish orqali shakllantirish eng qulay usullardan sanaladi. Ularning ichida sanash vositalari bilan ishlash, modellashtirish, sistemalashtirish, xalq o'yinlari, shaxmat, shashka va boshqa o'yinlar kabilarni sanab o'tish mumkin.

Kompyuter o'yinlari [130]: bolaning tafakkurini rivojlantirishda kompyuter o'yinlarining imkoniyati juda keng. Biroq o'zbek tilidagi mana shunday o'yinlar hali kamchilikni tashkil qiladi. Biroq boshqa tillardagi o'yinlarni bizning voqeligimmizga moslash orqali ularni qo'llash imkoniyati mavjud. Kompyuter o'yinlari orqali yuqorida aytilgan barcha usullarni ishlash mumkin. Biz quyida maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashni shakllantiruvchi kompyuter o'yinlarini ishlab chiqish va undan foydalanish metodikasini keltirib o'tamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алексеев А.А. Взаимодействие образных и символических структур в развивающемся интеллекте ребёнка. С-Пб.: Питер, 2001. 89 с.
2. Пиаже Ж. Психология интеллекта. - СПб.: Питер, 2004. - 192 с.
3. Bakhtiyorovna, Adizova Nigora, and Ozodova Madina. "Technology Of Training." Aimed At Developing Creative Working Skills In The Training Of Primary School Teachers The American Journal of Social Science and Education Innovations 2021/3/31: 546- 550.
4. Zikiryayev A. va boshqalar. O'quvchilar bilimini tekshirishda innovatsion texnologiyalar. // —Xalq ta'limi jurnali, 2001, 6-son. —19-b. 3. Xolmetov M. Tarbiyada didaktik o'yinlarning ahamiyati. // —Ma'rifat, 2002, 6-son. — 16- b.
5. Yusupova A, Qurbonniyozov R. Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash muammolari. // —Pedagogik ta'lim jurnali, 2000, 3-son. —18-b. 5. Nishonaliyev U. Yangi pedagogik va axborot texnologiyalari muammolari va yechimlari. // —Pedagogik ta'lim jurnali, 2000, 3-son. —11-b.
6. Meyliyeva Shoxista Rustamovna, Safarova Nilufar Vohidovna, Maxmiyev Afro'zbek Dadaxon o'g'li OLIY TA'LIM TALABALARINI O'QITISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH. INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE British International Science Conference. 2024. – 255
7. Meyliyeva Shoxista Rustamovna, Pirimova Shaxlo Jo'rayevna, Maxmiyev Afro'zbek Dadaxon o'g'li O'QITISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH. IJODKOR O'QITUVCHI ILMIY-USLUBIY JURNAL. 2024-yil . 44-son. 66-69 b.

8. Meyliyeva Shoxista Rustamovna, Maxmiyev Afro'zbek Dadaxon o'g'li TALABALARINI O'QITISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH. PROSPECTS AND MAIN TRANDS IN MODERN SCIENCE International scientific-online conference. Part 16 November 29 th COLLETIONS OF SCIENTIFIC WORKS. MADRID 2024. 74-78 b.

9. Meyliyeva Shoxista Rustamovna Дидактик ўйинлар мактабгача ёшдаги болаларнинг мантикий фикрлашини ривожлантириш воситаси “ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN KREATIV G’OYALAR, TAKLIFLAR VA YECHIMLAR” MAVZUSIDAGI 77-SONLI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ON-LINE KONFERENSIYASI MATERIALLARI TO’PLAMI 1-MART , 2025-YIL 77-SON 69-76 b.